RIVOJLANTIRUVCHI TA’LIM MOHIYATI VA XUSUSIYATLARI

Suvanov O.,
GulDU Pedagogika va psixologya
kafedrasi katta o‘qituvchsi

Annotaiya: *ushbu maqolalada rivojlantiruvchi ta’lim mohiyati va xususiyatlari qisman yoritilgan bo‘lib, polimlarni qarashlari tahlilili keltrilgan.*

Kalit so‘zlar: rivojlantiruvchi ta’lim, shaxs, ta’lim, xususiyat, individual, nazariya, o‘zlashtirish.

Abstract: This article partially covers the essence and characteristics of developmental education, and analyzes the views of policymakers.

Keywords: developmental education, personality, education, characteristic, individual, theory, mastery

Аннотация: В статьях частично раскрывается сущность и особенности развивающего образования, анализируются взгляды политиков.

Ключевые слова: развивающее обучение, личность, образование, характеристика, индивидуум, теория, мастерство

Ta’limning asosiy masalalardan biri o‘qitish jarayonida shaxsni rivojlanish muammosi sanaladi.

Rivojlanish – shaxsning fiziologik hamda intellektual o‘sishida namoyon bo‘ladigan miqdor va sifat o‘zgarishlar mohiyatini ifoda etuvchi murakkab jarayon

Shaxsni rivojlantirish – individda vaqt nuqtai nazaridan jismoniy va ruhiy o‘zgarishlarning sodir bo‘lish jarayoni bo‘lib, u orqali individ kamdan ko‘pga, oddiydan murakkabga, quyidan yuqoriga ko‘rsatgichlari orqali takomillashib, kamolga yetib boradi

1960-1970 yillarda rossiyalik psixologlar – D.B.Elkonin va V.V.Davidovlar tomonidan o‘qitish jarayonini va u bilan bevosita ta’lim oluvchi shaxsini rivojlantirish tizimini ishlab chiqildi va amaliyotda sinab ko‘rildi. Ushbu tizimning mohiyati o‘qituvchilarda o‘qitish jarayonida ta’lim oluvchilarni har qanday ilmiy ma’lumot bilan ishlay olishga o‘rgatish borasidagi ko‘nikma va malakalarni rivojlantirishdan iborat edi. Boshqacha qilib aytganda, ta’lim jarayoni shunday tashkil etilishi kerak edikki, u doimo rivojlanuvchi xarakter kasb etsin.

Yana bir rossiyalik tadqiqotchi P.Ya.Galperinning “Aqliy xatti-harakatlar, bilimlar, malaka va ko‘nikmalarni bosqichma- bosqich rivojlantirish nazariyasi” ham bevosita ta’lim oluvchi shaxsini rivojlantirish g‘oyalarini asosladi.

Rivojlanish ham o‘ziga xos xususiyatlarni namoyon etadi.

Jumladan:immanentlik (rivojlanish shaxsning ajralmas xususiyati bo‘lib, u tabiat tomonidan yuqtiriladi);

-biogenlik (shaxsning ruhiy rivojlanishini

-ko‘p holatda vorisiylik, irsiyat belgilaydi);

-sotsiogenlik (shaxsning rivojlanishiga ijtimoiy muhit ta’sir ko‘rsatadi);

-psixogenlik (insonning o‘z-o‘zini nazorat qilish va o‘z-o‘zini boshqarish tizimi hisoblanadi);

-individuallik (shaxs o‘zida rivojlanishning o‘ziga xos varianti hamda sifatlarini individual tanlashdek kuchli hodisani ifodalaydi);

-ko‘p bosqichlilik (shaxsning rivojlanishi

-umumiy davriylik qonuniyaga muvofiq kechadi);

-notekislik (har bir shaxs vaqt tezkorligi va o‘sishdagi qarama-qarshiliklarning tasoifiy tanlanishiga ko‘ra ma’lum sur’atda rivojlanadi, boshqacha aytganda har qanday, hatto ta’lim va tarbiyaning eng qulay sharoitlarida ham shaxsning turli ruhiy belgilari, funksiyalari va xususiyatlari rivojlanishning bitta darajasida to‘xtab turmaydi);

- jismoniy o‘sish ruhiy rivojlanishning miqdor va sifat tavsif- larini, darajasini va individning o‘ziga xosligini ifodalaydi

P.Ya.Galperin nazariyasi bo‘yicha bilimlarni o‘zlashtirish jarayoni olti bosqichda kechiradi.

Bilimlarni o‘zlashtirish jarayoni bosqichlari

Nazariyaga ko‘ra bilimlarni o‘zlashtirishda quyidagi holatlar kuzatiladi:

1) xatti-harakatlarni o‘zlashtirish xatolar bilan kechadi (talaba o‘quv materiali mazmuni yetarlicha anglamaydi, ta’lim- ning asl mohiyatini tushunib yetmaydi);

2) materialni nisbatan to‘la tushunadi (bu holat material bilan bog‘liq tushunchalarni ajratilishi bilan tavsiflanadi);

1) xatti-harakatlar tez, samarador va bexato o‘zlashtiriladi. Psixologik rivojlanish nuqtai nazaridan L.V.Zankov shaxsning umumiy rivojlanishini belgilovchi psixologik nazariyani ishlab chiqqan. Uning umumiy mohiyati quyidagicha: kuzatuvchanlikni rivojlantirish; fikrlash qobiliyatini o‘stirish;

amaliy harakatlarni tashkil etish ko‘nikmalarini shakllan- tirish;

L.V.Zankovning nazariyasi asosida ta’limning quyidagi tamoyillari shaxsda qobiliyatlarni samarali rivojlantirishga xizmat qiladi

Rivojlantiruvchi ta’limning asoslaridan yana biri – V.V.Davыdov nazariyasi sanaladi. Ushbu nazariya kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarni ilmiy tushunchalarni o‘zlashtirilishini targ‘ib qiladi. Bunda o‘quvchilar tomonidan ta’lim jarayonida nazariy tushunchalar tizimini o‘zlashtirilishi lozim bo‘lib, bu o‘z o‘rnida xususiydan umumiy bilimlarga o‘tilishni ta’minlaydi.

Qator nazariyalar muammoli ta’lim bilan bog‘liq bo‘lib, L.V.Zankov va A.M.Matyushkin tomonidan olib borilgan tadqiqotlar ta’limda muammoli darslarni tashkil etishga qaratilgandir.

Ta’limning psixolik asoslari muammosi ko‘pgina masalalarni qamrab oladi. Ta’limning muvaffaqiyati bir qator psixologik omillarga bog‘liq. M: o‘quvchining o‘qishga bo‘lgan munosabati. Munosabat o‘quvchining diqqati, his-tuyg‘ulari, qiziqishlari, irodasi hamda u tutgan yo‘lda namoyon bo‘ladi.

Ta’lim jarayoni, eng avvalo, o‘quvchilar diqqatini to‘g‘ri yo‘naltira olishni talab etadi. Darslarda ko‘rgazmali qurollardan, texnik va kompyuter vositalaridan foydalanish ta’lim oluvchida ixtiyorsiz diqqatni yuzaga keltiradi. O‘qituvchining darsdagi vazifasi ishlash holatini yuzaga keltirishgina emas, balki o‘quvchilarning o‘rganiladigan materialini idrok etishga qanchalik tayyor ekanliklarini kuzatish hamdir. O‘quvchilarning diqqati darsda davomida o‘zgarib turadi. Shu sababli o‘kitish jarayonida bu qonuniyatni nazarda tutish va o‘quvchilar diqqatini materialning asosiy jihatlariga jalb etish, ularni takrorlashga e’tibor qaratish lozim.